XALQ DEPUTATLARI KITOB TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 18 - fevral VI-65-18-4-62-K/22 Kitob tuman hokimligi

Kitob tumanidagi davlat ekspertizasidan o‘tkazilgan aholi punktlari va aholi punktlari tarkibiy qismlarining nomlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y, 41-son, 448-modda; 2017-y., 35-son, 914-modda)ning 10-moddasi, Respublika ekspert komissiyasining 2021-yil 21-iyundagi 01-14-451-sonli, 29-iyuldagi 01-14-553-sonli, 29-dekabrdagi 08-07533-sonli, 2022- yil 7-yanvardagi 01-14-3-sonli xulosa xatlari hamda tuman hokimining taklifini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan xalq deputatlari Kitob tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Respublika ekspert komissiyasining 2021-yil 21-iyundagi 01-14-451-sonli, 29- iyuldagi 01-14-553-sonli, 29-dekabrdagi 08-07533-sonli, 2022- yil 7-yanvardagi 01-14-3-sonli xulosa xatlari hamda tuman hokimining taklifi ma’qullansin.

2. Kitob tumanidagi davlat ekspertizasidan o‘tkazilgan aholi punktlari va aholi punktlari tarkibiy qismlarining nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (A.Po‘latov)ga bir hafta muddatda tuman hududidagi davlat ekspertizasidan o‘tkazilgan aholi punktlari va aholi punktlari tarkibiy qismlarining nomlarini zamonaviy ko‘rinishda peshlavhalarga yozib o‘rnatish vazifasi yuklatilsin.

4. Kitob tumanidagi tegishli mahalla fuqarolar yig‘inlari raislariga tumandagi davlat ekspertizasidan o‘tkazilgan aholi punktlari va aholi punktlari tarkibiy qismlarining nomlari yangidan nomlanishi munosabati bilan aholi o‘rtasida targ‘ibot-tashviqot ishlarini o‘tkazish tavsiya etilsin.

5. Tuman ichki ishlar bo‘limi (I.Tog‘ayev) tumandagi davlat ekspertizasidan o‘tkazilgan aholi punktlari va aholi punktlari tarkibiy qismlarining nomlari o‘zgarishi munosabati bilan ushbu hududlarda yashovchi aholining fuqarolik pasportlari berilayotganda mazkur holatga alohida e’tibor qaratsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining sanoatni rivojlantirish, kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (A.Po‘latov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror tuman hokimligi nashrida chop etilsin.

8. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Xalq deputatlar Kitob tuman Kengashi raisi **Zakirov A. I.**

Халқ депутатлари Китоб туман
Кенгашининг
2022 йил 18 февралдаги
VI-65-18-4-62-K/22-сон қарорига
1-илова

Kitob tumanidagi davlat ekspertizasidan o‘tkazilgan aholi punktlari va aholi punktlari tarkibiy qismlarining nomlari to‘g‘risida

MA’LUMOT

T/r	**Geografik obyektning turi**	**Joylashgan hududi**	**Davlat ekspertizasi tasdiqlagan nom**
1	Ko‘cha	Hamid Olimjon MFY	Zulfiya Isroilova
2	Ko‘cha	Makrid MFY	Supatog‘ (oldingi nomi Payg‘ambarsupa)
3	Madaniyat va istirohat bog‘i	Tuman markazi	Mulla Qurbon Xiromiy
4	Ziyoratgoh	Bashir MFY Koyni qishlog‘i	Xo‘ja Hasanota
5	Ziyoratgoh	Oqsuv MFY Xo‘jaisparoz qishlog‘i	Oqsuv
6	Ziyoratgoh	Ulug‘bek MFY	Qabri Oxund
7	Ziyoratgoh	Katlos MFY Katlos qishlog‘i	Xalifayi Navro‘z
8	Qabriston	Oyoqchi MFY	Qoraxo‘ja
9	Qabriston	Oyoqchi MFY	Go‘rvon
10	Qabriston	Hoji MFY	Uzunqirtepa (oldingi nomi Guliston)